

XORAZM VOHASIDA ILK URBANISTIK JARAYONLARNING TADQIQOTI MUAMMOLARI

*Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li, Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

PROBLEMS OF THE RESEARCH OF EARLY URBAN PROCESSES IN THE KHOREZM OASIS

*Bakhtiyarov Sirojbek Ilhombek og'li, independent researcher at
Urgench State University*

ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПЕРВЫХ УРБАНИСТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ

*Бахтияров Сирожбек Илхомбек оглы, независимый научный
сотрудник Ургенчского государственного университета*



[https://orcid.org/ 0009-0005-6596-5975](https://orcid.org/0009-0005-6596-5975)

e-mail:

s_baxtiyarov96@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Xorazm hududida urbanistik jarayonlarning tadqiqoti masalalari haqida so'z yuritiladi. Qadimgi davrda Xorazm vohasidagi urbanizatsiya jarayoni qanday kechganligi haqida tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Xumbuztepa, Ko'zaliqir, Jonbos-7, Meshekli, Uch o'choq, Ananino.

Abstract: This article discusses issues related to the study of urbanization processes in the ancient Khorezm region. The opinions and perspectives of researchers on how the process of urbanization unfolded in the Khorezm oasis during ancient times are examined.

Key words: Khumbuztepa, Kozaliqir, Jonbos-7, Meshekli, Uch Ochoq, Ananyino culture.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы исследования урбанистических процессов на территории древнего Хорезма. Изучены мнения и рассуждения исследователей о том, каким образом происходил процесс урбанизации в оазисе Хорезм в древние времена.

Ключевые слова: Хумбузтепа, Козаликир, Джонбос-7, Мешекли, Уч очок, Ананинская культура.

KIRISH. Tarix fanida ilk shaharlarning shakllanishi va aholining shaharlarga kelib joylashishi urbanizatsiya jarayonlarining ilk bosqichlari sifatida qaraladi. Ilk shaharlarning tashkil topishi ham har bir hududda o'ziga xos tarzda kechadi. Bunga turli xil omillar ta'sir qilishi mumkin. Qadimgi Xorazmda ilk shaharlarning tashkil topishi masalasi tadqiqotchilar o'rtasidagi munozarali masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Qadimgi Xorazmda mil.avv.VI asrga kelganda tub siyosiy va iqtisodiy rivojlanish kuzatiladi. Vohaning janubiy qismida Xumbuztepa, uning shimoli-g'arbiy qismida mustahkam mudofaaga ega bo'lgan Ko'zaliqir qal'asi bunyod

etiladi. Bu taraqqiyot hududning bu davrdan oldingi jamiyati bilan bog'liq bo'lmagan. Bu shaharlar qisqa vaqt ichida qurilgan va aholisi rivojlangan dehqonchilik va kulolchilik bilan shug'ullangan. Bu davrdan oldingi jamiyatlar Amirobod va Quysisoy madaniyatini yaratgan aholi bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi janubiy Oqchadaryo deltalari bo'ylarida Amirobod madaniyati aholisi istiqomat qilgan bo'lib, u mil.avv. X – VIII asrlarga oid. Amirobod madaniyati aholisi chayla va yarim yerto'lalarda yashaganlar. Hunarmandchilik ham primitiv bo'lib, sopol buyumlarni qo'lda ishlaganlar. Xo'jaligining asosini

ibtidoiy qair dehqonchiligi va yaylov chorvachiligi tashkil etgan. Ular keng va sayoz kanallarni qurishgan. Mil.avv. VIII-VII asrlarda janubiy Oqchadaryo o'zaniga suv kelishining kamayishi natijasida ular turmush tarzini o'zgartirganlar [1,6.115]. Amirobodliklarning bir qismi ko'chmanchi chorvachilikni rivojlantirib, Oqchadaryoning shimoliy tomoniga va Sirdaryoning quyi oqimiga ketishgan. Bir qismi Sariqamishbo'yi o'zanida suvning ko'payganligi sababli Amudaryoning chap sohiliga o'tib, uning havzalariga kelib joylashganlar. Sariqamishbo'yi o'zanida suvning ko'payishi ko'plab qabilalarning bu yerga kelishiga sabab bo'lgan. Bu qabilalar Quvisoy madaniyatiga asos solishgan. Bu madaniyatni yaratgan aholi ham yarim yerto'la, chaylalarda yashab, chorvachilik, lalmikor dehqonchilik, hunarmandchilikning metallurgiya turi, suyakka va feruza toshga ishlov berish bilan shug'ullanishgan [2, c.23]. Sopol buyumlar qo'lda ishlanib, ochiq gulxanda pishirilgan.

Xorazm vohasining janubiy tomonidan Tuyamo'yin havzalarida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Bu joy ko'chmanchi chorvadorlarning qishlov joylari bo'lgan. Arxeologik tadqiqot ishlari natijasida bu yerdan mil.avv. VIII-V asrlarga oid ko'chmanchilarning mozar-qo'rg'onlari topilgan [3, c.30-40]. Ular Meshekli va Uch o'choq yodgorliklari deb nomlanib, saklarga oid qabrlar ekanligi aniqlangan. Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlarini umumlashtiradigan bo'lsak, mil.avv. VIII-VI asrlarda qadimgi Xorazm vohasining g'arbiy tomonida Quvisoy madaniyatini yaratgan aholi, sharqiy tomonida Amirobod madaniyatini yaratgan aholi, janubiy tomonida Meshekli, Uch o'choq madaniyati aholisi yashaganligi aniqlangan. Ular chaylalarda istiqomat qilgan, ularda monumetal me'morchilik bo'lganligi aniqlanmagan.

Mil.avv. VI asrning birinchi yarmida Qadimgi Xorazm vohasining janubiy qismida hunarmandchilik markazi bo'lgan Xumbuztepa, markaziy shahar Xazorasp va shimoli-sharqiy qismida mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan Ko'zaliqir shahri bunyod etilgan. Aynan shu shaharlar bunyod etilgan vaqtdan boshlab vohada ilk urbanistik jarayonlar boshlangan, keyingi davrlarda taraqqiy etib borgan. Shu davrdan boshlab Xorazm vohasida o'ziga xos sivilizatsiya shakllangan. Ilk

urbanizatsion jarayondan boshlab, Amudaryo vohasining janubi va sharqiy qismidagi taraqqiyot Amudaryoning shimoli-g'arbiy tomonidagi taraqqiyotdan farqli tomonlari kuzatilgan. Bu o'ziga xos rivojlanish keyingi davrlarda ham kuzatilgan va yozma manbalarda ham o'z aksini topgan. Yodgorliklarning qurilishi, sug'orish tizimi, chorvachilik tarkibi, sopol idishlarning yasash uslublarida farqlar kuzatiladi.

Amudaryoning shimoli-g'arbiy qismidagi Ko'zaliqir shahrining vujudga kelishi sababini S.P.Tolstov Amirobod madaniyati aholisining ko'chishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin, deb ko'rsatadi [4, c.70-79]. Amirobod madaniyati Oqchadaryo o'zani bo'ylarida so'nggi bronza davridan istiqomat qila boshlashgan. Uning aholisi ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzida, turar joy qurilishida mil.avv. VIII-VII asrlarga kelganda o'zgarishlar kuzatilgan. Bu davrda Amirobod madaniyati aholisining izlari Amudaryoning ikkala qirg'og'i bo'ylaridan ham topilgan [5,6.69]. Aholining manzilgohlari qadimgi bosh kanallarning deyarlik hamma asosiy o'zanlari qirg'og'ining ko'tarma joylarida joylashgan [5,6.70]. Suv miqdorining kamaya borishi bilan amirobodliklardan suvni dalaga yetkazish vazifasini qo'ygan. Natijada kanallarning boshi yuqori tomonga siljib borgan, daryoning o'zidan ham chiqarila boshlangan. Amirobod madaniyati tarixidagi bu o'zgarishlar davrida ular paxsali "uzun uylarni" bunyod qilganlar. Bu Jonbos-7 yodgorligini o'rganish asosida o'rganilgan. Jonbos-7 g'arbdan sharqqa cho'zilgan 2ta parallel yo'nalgan yo'laksimon uy bo'lib, tadqiqotchilar fikricha, bu jamoaviy xarakterdagi turar joy bo'lgan. Uning uzunligi 77 metr, kengligi 20 metr bo'lib, devorlari qalinligi 1,5 – 2 metrni tashkil qilgan. Uzun uylar tepalik ustiga shunday qurilganki, tepalikning bir tomoni uzun uylar bilan birgalikda yopiq katta hovlini hosil qilgan [4,c.70-79]. Bir yo'lakning eni 10 metr, ikkinchisidiki 5 metr bo'lgan. Bu katta uyda yana yashash uchun mo'ljallanmagan binolar ham aniqlangan. Shunday bino Ko'zaliqir shahrida ham qurilgan. Tadqiqotchilar bunday uzun uylarni bronza va ilk temir davriga oid bo'lgan sharqiy Yevropaning Tripole, Ananino madaniyatlarida ham kuzatishgan.

Jonbos-7 yodgorligidan topilgan sopol buyumlarning ishlanish uslubi ham Ko'zaliqir va Qal'aliqirdan topilgan sopol buyumlarga o'xshashligi aniqlangan. Shu asosda S.P.Tolstov

Amirobod madaniyatining rivojlangan davrini Ko'zaliqir yodgorligi bilan bog'laydi. Sopol buyumlar ishlanishining ba'zi bir uslublari antik davrda ham kuzatilgan.

Jonbos-7 yodgorligi atrofidagi sug'orish tizimi Ko'zaliqir yodgorligi, ya'ni Amudaryoning chap sohilining shimoli-g'arbiy qismida Dovdon va Chermoneyob kanallarining sug'orish tizimiga o'xshab ketadi. Kanallar keng qurilgan va daryo yirik o'zannining o'zidan chiqarilgan. Eski o'zanning izini takrorlagan. Arxaik davr kanali eni 30 – 40 metrgacha bo'lib, sayoz bo'lgan [6,c.92]. Kanal boshi daryoning o'zidan boshlangan. Undan kanallar to'g'ri burchak ostida chiqarilib, bir tomonga yo'naltirilgan. So'nggi amirobod madaniyatiga oid shunday kanal Bozor 10 va Bozor 11 manzilgohlari yonidan aniqlangan. U Amudaryoning yirik o'zani yonidan chiqarilib, eni 10-13 metr bo'lib, bir necha kilometr ga cho'zilgan[6,c.75].

Shaharlarning tepalik ustida qurilishi, qurilgan joylarning asosi qumdan tashkil qilinganligi, mudofaa devorlari yo'laksimon bo'lib, aholining yashaganligi haqidagi dalillarning borligi, noturar joylarning mavjudligi kabi shahar qurilishidagi uslublari Ko'zaliqir va Jonbos-7 yodgorligida aniqlangan. Bu ikki yodgorlikdagi o'xshash jihatlar yana, sopol buyumlarning gardishining ishlanishida va chorva mollari tarkibida ham aniqlangan. Amirobodliklarda yirik shohli mollar ko'pchilikni tashkil qilgan. Xuddi shunday tarkib Ko'zaliqir chorvasida ham bo'lgan. Arxaik davrda 52%ni tashkil qilgan [6,c.104]. Antik davrga kelganda, chorva tarkibida mayda shoxli mol yetakchilik qilgan. V.I.Salkin olib borgan tadqiqotga ko'ra yirik shoxli mol 32,6 %, ot 8,2 %, tuya 2 %, kichik shoxli mol 49,7 % tashkil qilgan [7,c.108].

Amirobod madaniyatiga xos bo'lgan qurilish uslubi, sopol idishlari, sug'orish tizimi va chorva mollaridagi o'xshashliklar Xorazm vohasidagi ilk shahar Ko'zaliqirning shakllanishi mahalliy ildizlarga ega ekanligini asoslaydi.

Xorazm vohasining janubiy qismida ilk urbanizatsiya jarayonida janubiy davlatlar aholisining ta'siri kuzatiladi. Xorazmga janubdan aholining ko'chib kelganligi masalasi tadqiqotchilar o'rtasida uzoq vaqt muhokamaga sabab bo'lgan[8,c.82-93]. Bu "Katta Xorazm" muammosi bo'lib, tadqiqotchilar o'rtasida ikki xil fikr ilgari surilgan. Bir guruh olimlar Xorazm davlatining ta'sir

doirasi keng bo'lib, janubda Murg'ob va Tajan daryosi hududlariga tarqalgan deb ko'rsatsa [9,c.156], boshqa bir guruh olimlar xorazmliklar dastlab janubda yashab, keyinchalik qandaydir sabab bilan Amudaryoning quyi oqimiga borgan deb hisoblashgan [10,c.118], [11,6.76-84]. Bu munozarali masalaning yechimi ham Xorazm vohasidagi urbanizatsiya jarayoni qanday kechganligini aniqlashda imkon beradi.

XULOSA. Qadimgi Xorazmda ilk urbanizatsion jarayonlarning shakllanishi tadqiqotchilar o'rtasida munozara masalasi bo'lib kelmoqda. Bu Xorazm vohasidagi ilk shaharning tashkil topishi bilan bog'liq bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan bu borada turli g'oyalarni ilgari suradilar.

Xorazm vohasida XX asrning ikkinchi yarmida tadqiqot ishlarini olib borgan S.P.Tolstov, A.O.Vishnevskaya, A.V.Andrianovlar Ko'zaliqir shahrining shakllanishida Oqchadaryo havzasida yashagan Amirobod madaniyati aholisining ta'siri bo'lganligini ko'rsatadi va Ko'zaliqir sopol idishlari Amudaryoning ikkala qirg'og'i hududlaridan ham topilganligini ko'rsatishgan. Lekin XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida bu masala muhokamaga tortilmagan. Faqat ilk shahar Ko'zaliqirning qurilish davri mil.avv. VII asrning oxirlari va mil.avv. VI asrning boshlari bilan belgilanib, Ko'zaliqirdan topilgan sopol idishlarning loy tarkibi Quvisoy madaniyati sopol idishlari loy tarkibiga o'xshashligi asoslangan.

Mavjud ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili natijasida ilk shahar Ko'zaliqirning shakllanishida Amirobod madaniyatiga oid Jonbos-7 yodgorligidagi "uzun uylar"ning qurilishida, moddiy madaniyati va turmush tarzida o'xshashliklar aniqlandi. Bu esa, Xorazm vohasining shimoli-g'arbida boshlangan ilk urbanizatsion jarayonning asosi sharqdan boshlangan va u mahalliy ildizga ega, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности. /История государственности Узбекистана. Т.І. /Авт. Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова и др. – Ташкент: Узбекистан, 2009.

2. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма. М., 1979.
3. Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. /Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 4 –сон. 2014. 30-40 бетлар.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. – 352 с.
5. Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – 319 б.
6. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962.
7. Цалкин В.И. Фауна древнего Хорезма в свете данных археологии. /Древнейшее животноводство племен Восточной Европы и Средней Азии. – Москва: Наука, 1966. – С. 108.
8. Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма (VI – IV вв. до н.э.) диссер. на соис. кан. ист. наук. Нукус. 2001. – С. 82-93.
9. Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времён до конца IV в. до н.э. – Баку: “Нагыл Еви”, 2012. – 328 с.
10. Ягодин В.Н. Древний Хорезм и Центрально-азиатский урбанизационный процесс. //Тезисы докладов конференции “Возникновения и развития урбанизационных процессов в Центральной Азии”. –Самарканд, 1995. – С.118;
11. Асқаров А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. –Тошкент. 2004. –Б.76-84.

